1. Умидова М. (2020). Развитие киноиндустрии Узбекистана: перспективы и вызовы. Вестник Ташкентского государственного экономического университета, 1(2), 56-64.
2. Рахимов А. (2019). Кино как инструмент продвижения туризма в Узбекистане. Журнал «Туризм и культура», 2(3), 15-221.
3. https://old.dunyo.info/ru/site/inner/uzbekskiy_filym_dve_tisyachi_pesen_faridi_v_oshel_v_short-list_premii_zolotoy_globus-2GW (09.12.2020) ИО «Dunyo»
4. Frost, W. (2006). Braveheart-ed Ned Kelly: Historic Films, Heritage Tourism and Destination Image. Tourism Management, 27(2), 247-254.
5. Насырова А.Т. (2022). статья «Перспективы развития кинотуризма в Республике Узбекистан». O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI; 11-SON

¹ Александр Сокуров — российский кинорежиссер и сценарист, народный артист Российской Федерации. Лауреат множества международных кинопремий, в том числе Берлинского, Каннского и Венецианского кинофестивалей. В 1995 году Европейская киноакадемия включила Александра Сокурова в список ста лучших режиссеров мирового кино.

² Из интервью Александра Сокурова информационному агентству "Фергана" (18+), 13.10.2023 год.

YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASH IJTIMOIIY MUAMMO SIFATIDA

Qahhorova Feruza Yorqin qizi

Samarqand davlat universitetining Kattqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi: e-mail: feruzaqahhorova03@gmail.com

Eshnazarova Madinaoy Ilhom qizi

Samarqand davlat universitetining Kattqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi: e-mail: madinaehsnazarova2003@gmail.com

Ilmiy rahbar: Eshmurodov B

Samarqand davlat universitetining Kattqo'rg'on filiali o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada aholi ish bilan bandligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga xos xususiyatlar, kasb malaka guruhlarini bo'yicha taqsimlanishdagi qonuniyatlar. Ishsizlik holatini hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularni kasb-hunarga o'qitish holatlari o'rganib chiqilgan va yoritilgan.

Kalit so'zlar: islohotlar, malaka, ishsizlik, bandlik, ehtiyoj potensial demografik xolat, xarajatlar, kredit, mehnat resurslari

KIRISH

Prezident Shavkat Mirziyoyev 23-fevral kuni yoshlar bandligini ta'minlash chora-tadbirlari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Davlatimizning kuchli ijtimoiy siyosatida yoshlar eng ustuvor yo'nalish. Ularga sifatli ta'lim va kasb berish, intilishlarini qo'llab-quvvatlash doimiy e'tiborda. Har bir mahallada "Yoshlar bandligi dasturi" amalga oshirilmoqda, "Besh tashabbus olimpiadasi", "Madaniyat karvoni" tadbirlari va turli festivallar o'tkazilmoqda. Shu yil 21-fevralda Prezident farmoni bilan "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi qabul qilindi.¹ Dasturda yoshlar muammolarini hal qilish va salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga o'qitish orqali bandligini ta'minlash bo'yicha ko'plab vazifalar belgilangan. Bu yil "yoshlar balansi" bo'yicha 925 ming yigit-qizning bandligini ta'minlash zarur. Shuningdek, kollej, texnikum va oliy o'quv yurtlarini 300 ming yosh bitiradi. Yig'ilishda ularni ishga joylashtirish, zamonaviy kasb-hunarlar va tadbirkorlikka jalb etish masalalari muhokama qilindi. Avvalo, yoshlarning biznes bilan shug'ullanishiga qo'shimcha imkoniyatlar yaratilishi aytili. Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizi shunga yo'naltiriladi. "Yosh tadbirkor" tanlovlari

¹¹ 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 30.12.2020 y. Xalq so'zi №276(7778).

o'tkazilib, g'olib bo'lgan biznes loyiha va g'oyalar egalari xorijiy davlatlarga malaka oshirishga yuboriladi.

Mutasaddilar yangi sanoat loyihalarida 100 ming, xizmatlar sohasida 150 ming, ish o'rinlarini legallashtirish va o'zini o'zi band qilish orqali 200 ming nafar yigit-qiz bandligini ta'minlash to'g'risida axborot berdi. Hozirgi kunda yoshlarbop istiqbolli soha bu raqamli texnologiyalar. Shu bois Davlat dasturida "Har bir mahalladan ikki nafar dasturchi" loyihasi belgilangan. Shuningdek, bu yil axborot texnologiyalari sohasida 70 ming yoshni band qilish rejalashtirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Buning uchun qobiliyatli yigit-qizlarni aniqlab, IT-kasblar va xorijiy tillarni o'rganishiga ko'maklashish zarurligi ta'kidlanib, hokimlarga tegishli ko'rsatmalar berildi. Yoshlar ishlari agentligining "Ibrat farzandlari" loyihasi orqali 1 million nafar o'g'il-qiz xorijiy tillarga bepul o'qitiladi. Maktablardagi bo'sh sinf xonalari chet tili repetitorlari va o'quv markazlari uchun bepul ijaraga beriladi. Qishloq joylardagi o'quvchilarning o'zlashtirishi yuqori bo'lgan 100 ta xususiy o'quv markazining ijara xarajatlari 6 oygacha kompensatsiya qilinadi. Shuningdek, xususiy kurslarda o'qib, "C-1" sertifikatini olgan yoshlarga o'qish xarajatlari, nemis, fransuz, koreys, yapon va xitoy tillari bo'yicha esa "B-2" darajasi sertifikatini olish xarajatlari qoplab beriladi. Yana bir yangilik – bu yil nafaqat sertifikat olishdagi imtihon xarajati, balki olti oylik o'qish puli ham to'lab beriladi. "Ustoz" loyihasi doirasida 250 ming nafar yoshlar marketing, reklama, elektron savdo, IT-dizayner kabi 30 ta zamonaviy kasbga o'rgatiladi. Aholi bandligini ta'minlashda qishloq xo'jaligida imkoniyatlar keng. Oldingi yillarda shu maqsadda 200 ming gektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, dehqonchilik uchun odamlarga bo'lib berilgan edi. Bu yil yana 60 ming 500 gektar yer yoshlarga ajratilishi belgilangan. Bundan samarali foydalanish uchun yangi tartib o'rnatilishi qayd etildi. Unga ko'ra, tuman hokimlari yerni suv ta'minoti yaxshi joydan ajratishga mas'ul bo'ladi. Har bir yoshga qancha maydon ajratish bo'yicha "mahalla yettiligi" taklif beradi. Yer olgan yoshlar Agrobankning "Fermerlar maktabi"da hosildor eksportbop ekinlar yetishtirishga o'qitiladi. Mini-texnika, urug' va ko'chatlar sotib olishga "Yoshlar daftari" jamg'armasi hamda Fermerlar jamg'armasidan subsidiya ajratiladi. Dehqon yoshlarga eksportchi va qayta ishlovchi tadbirkorlar kooperatsiya asosida birlashtiriladi. Bundan tashqari, meva-sabzavot kooperatsiyalariga banklar orqali 2 milliard so'mgacha kredit ham beriladi. Yig'ilishda O'zbekiston Prezidentining shu yil 18-yanvardagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni ijrosiga ham to'xtalib o'tildi. Mazkur farmonda 156 ta

tumanda 15 ming 626 gektar qishloq xo‘jaligi yerlari onlayn auksion savdolariga chiqarilishi belgilangan.²

Buning uchun qobiliyatli yigit-qizlarni aniqlab, IT-kasblar va xorijiy tillarni o‘rganishiga ko‘maklashish zarurligi ta’kidlanib, hokimlarga tegishli ko‘rsatmalar berildi. Yoshlar ishlari agentligining “Ibrat farzandlari” loyihasi orqali 1 million nafar o‘g‘il-qiz xorijiy tillarga bepul o‘qitiladi. Maktablardagi bo‘sh sinf xonalari chet tili repetitorlari va o‘quv markazlari uchun bepul ijaraga beriladi. Qishloq joylardagi o‘quvchilarning o‘zlashtirishi yuqori bo‘lgan 100 ta xususiy o‘quv markazining ijara xarajatlari 6 oygacha kompensatsiya qilinadi.

Shuningdek, xususiy kurslarda o‘qib, “C-1” sertifikatini olgan yoshlarga o‘qish xarajatlari, nemis, fransuz, koreys, yapon va xitoy tillari bo‘yicha esa “B-2” darajasi sertifikatini olish xarajatlari qoplab beriladi. Yana bir yangilik – bu yil nafaqat sertifikat olishdagi imtihon xarajati, balki olti oylik o‘qish puli ham to‘lab beriladi. “Ustoz” loyihasi doirasida 250 ming nafar yoshlar marketing, reklama, elektron savdo, IT-dizayner kabi 30 ta zamonaviy kasbga o‘rgatiladi. Aholi bandligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligida imkoniyatlar keng. Oldingi yillarda shu maqsadda 200 ming gektar paxta va g‘alla maydonlari qisqartirilib, dehqonchilik uchun odamlarga bo‘lib berilgan edi. Bu yil yana 60 ming 500 gektar yer yoshlarga ajratilishi belgilangan. Bundan samarali foydalanish uchun yangi tartib o‘rnatilishi qayd etildi. Unga ko‘ra, tuman hokimlari yerni suv ta’minoti yaxshi joydan ajratishga mas’ul bo‘ladi. Har bir yoshga qancha maydon ajratish bo‘yicha “mahalla yettiligi” taklif beradi. Yer olgan yoshlar Agrobankning “Fermerlar maktabi”da hosildor eksportbop ekinlar yetishtirishga o‘qitiladi. Mini-texnika, urug‘ va ko‘chatlar sotib olishga “Yoshlar daftari” jamg‘armasi hamda Fermerlar jamg‘armasidan subsidiya ajratiladi. Dehqon yoshlarga eksportchi va qayta ishlovchi tadbirkorlar kooperatsiya asosida birlashtiriladi. Bundan tashqari, meva-sabzavot kooperatsiyalariga banklar orqali 2 milliard so‘mgacha kredit ham beriladi. Yig‘ilishda O‘zbekiston Prezidentining shu yil 18-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni ijrosiga ham to‘xtalib o‘tildi. Mazkur farmonda 156 ta tumanda 15 ming 626 gektar qishloq xo‘jaligi yerlari onlayn auksion savdolariga chiqarilishi belgilangan.

Bugungi kunda band bo‘lmagan aholini ish bilan ta’minlash, sektorlar kesimida yoshlar daftarini shakllantirish orqali ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘rgatish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Namangan viloyatining Uychi tumanida hamkor tashkilotlar tomonidan tizimli ishlar olib borilmoqda. Davlatimiz rahbarining jamiyatda ayollar va yoshlarning rolini oshirish hamda bandligini ta’minlash chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor

² 2. 1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri. – T.: “FAN”, 2019. – 592 b.

yig'ilishida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalar ro'yxati, har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida "yoshlar daftari" va "ayollar daftari"ni shakllantirish vazifasi belgilangan edi. Mazkur masala yuzasidan Uychi tumani 4-sektorda hamkor tashkilotlar bilan birgalikda yoshlar va ayollar daftariga kiritilgan fuqarolar bilan tushuntirish-targ'ibot tadbirlari olib borilmoqda. Jumladan, ro'yxatga kiritilib hozirda ishsiz bo'lgan yoshlarni kasbga yo'naltirish, ularni tadbirkorlikka keng jalb qilish bo'yicha Uychi tuman davlat xizmatlari markazi xodimlari ham huquqiy maslahat va yo'l-yo'riqlar ko'rsatmoqda.

Mazkur mas'uliyati cheklangan jamiyati 2019-yilda ish boshlagan bo'lsa, dastlab 3 nafar ishchi faoliyat olib borgan. O'tgan yilda esa, 40 nafar band bo'lmagan aholini ish bilan ta'minlagan. Bu yil yoshlar daftaridagi 7 nafar qizlarni ishga qabul qildi. Tashkil etilgan press-turda yana bir fuqaroning bandligi ta'minladi. Korxonada tayyorlanayotgan mahsulotlar 100 foiz chet davlatga eksport qilinadi. Bu yil ham tadbirkor tomonidan yana 40 nafar yoshlarni ish bilan band qilish nazarda tutilgan. Uychi tumani 4-sektor hududida 14 ta mahalla fuqarolar yig'ini mavjud bo'lib unda, 53 752 nafar aholi istiqomat qiladi. O'rganishlar davomida, 616 nafari ayollar daftariga, 281 nafari yoshlar daftariga kiritilgan³. Hozirda, 23 nafar xotin-qizlar bandligi ta'minlangan bo'lsa, 50 nafar yoshlar 1+1 tartibida tadbirkorlarga bog'langan. Shulardan, 27 nafari o'zi xohlagan kasbi bo'yicha ishga joylashtirilgan. Albatta, tizimli ishlarni yo'lga qo'yish orqali ayollar va yoshlar daftaridagi fuqarolarni ishga joylashtirish hamda huquqiy maslahatlar berish, shuningdek ularni kasbga yo'naltirishdan ko'zlangan maqsad aholi turmush darajasini yaxshilash va uyishmagan yoshlarni bandligini ta'minlashga qaratilgan.

Bu o'zining natijasini berib, joriy yilda tumanda 49 ta tadbirkorlik subyekti davlat ro'hatidan o'tkazilgan bo'lsa, shularning 18 tasi yoshlarni tashkil etadi. Quvonarlisi, ro'yxatdan o'tgan ikkita yosh tadbirkor yoshlar daftaridagi ishsiz fuqarolardir. Davlat xizmatlari agentligi Namangan viloyat boshqarmasi tomonidan tumanda band bo'lmagan fuqarolar hamda maktab bitiruvchilarini ishga joylashtirish, ularni turli kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan yoshlarni huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida press-tur tashkil etildi. Dastlab, yoshlarga davlat xizmatlari markazlarida ko'rsatilayotgan xizmatlardan masofadan turib foydalanish haqida ma'lumotlar berildi. Shu bilan, birga tadbirkorlik sohasiga qiziqishi bor yoshlarga tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tish va o'z biznesini boshlash bo'yicha qanday ish tashkil etish lozimligi tushuntirildi. Shundan so'ng, yoshlar daftariga kiritilgan o'g'il-qizlar uchun tumandagi erkaklarga kastyum-shim tayyorlaydigan korxonaga faoliyati yaqindan tanishtirildi.

³. Economic progress Report.- London. : 1981

О‘zbekistonda aholi sonining o‘zgarish dinamikasi (ming kishi)

Demografik jarayonlarga bog‘liq holda, O‘zbekistonda mehnat resurslari soni yil sayin ortib bormoqda. Tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, 2010-2020 yillarda respublikamiz mehnat resurslari 2930.8 ming kishiga ko‘payib, ushbu ko‘rsatkich mazkur yillarda 17,7% ga oshganini ko‘rsatmoqda. Bunday holat respublikamizda demografik vaziyatning murakkabligidan dalolat beradi. Chunki mehnat bozorida demografik “bosim”ning kuchayishi yoshlarning ish bilan ta‘minlash muammosini kuchayishiga sabab bo‘ladi. Tahlil etilayotgan davrlarda O‘zbekiston Respublikasida aholi soni 21,5 %ga oshgan. Shuningdek, respublikamizda shahar aholisini muntazam ko‘payib borishi kuzatilmoqda, ya‘ni 2020 yilda 17183,7 ming kishini tashkil etgan, ya‘ni bu ko‘rsatkichning 2010 yilga nisbatan o‘sishi 19,9 % ga oshgan oshgan. Respublikamizda ish bilan bandlar soni bu davrlar oralig‘ida 17,9%ga oshgan holda, ishsizlik darajasi 2020 yilda 9,1%ni tashkil etgan. Shuningdek, mustaqil tarzda ish qidirayotganlar soni 2,5 martaga oshgan. Buning asosiy sababi mehnat bozori egiluvchanligining ta‘minlanishi hisobiga nostandart ish bilan bandlik turlarining kengayib borayotganligi hisoblanadi.⁴ Mamlakatda ishsizlik katta iqtisodiy, moliyaviy ijtimoiy va ba‘zan psixologik harajatlarga olib keeladi. Iqtisodiy harajatlarbarcha iqtisodiy faol aholi band bo‘lmasligi oqibatida YaIMda o‘z ifodasini topadi. Moliyaviy harajatlarga, birinchidan, ishsizlarga ijtimoiy yordam sifatida ketadigan harajatlar(nafaqa moddiy yordamning boshqa turlari, ish bilan bandlik dasturini amalga oshirishga), ikkinchidan, davlat byudjetiga tushmagan soliqlar summasi orqali hisoblanadigan harajatlar kiradi. 1981 yilda Buyuk Britaniya moliya vazirligi tomonidan olib borilgan hisob-kitoblarga ko‘ra bitta ishsiz uchun qilingan harajat davlatga 3,4 ming funtga tushgan hamda davlatning barcha moliyaviy harajatlari 9,8 mlrd. funtni tashkil etgan. [3] Shuningdek, qishloq aholisi sonining doimiy oshib borishi O‘zbekistonda demografik rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatidir. Bunda hozirgi kunda mehnat bozorida yoshlarning jami mehnat resurslari tarkibida hissasi oshib borishi tendensiyasining mavjudligi yoshlar ishchi kuchiga talabni oshirish va ishchi kuchi taklifini qisqartirish muammosini yuzaga keltirmoqda. Tashkiliy-huquqiy mexanizmga mehnat munosabatlariga oid qonun va me‘yoriy hujjatlarni qabul qilish, mehnat munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish chora-tadbirlari va mehnat bozori infrastuzilmasining rivojlanishi kabilar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasida mehnat resurslari va ish bilan band aholi soni dinamikasi, (ming kishi)

Aholining ijtimoiy-foydali faoliyatda qatnashish xususiyati bo‘yicha jins-yosh guruhlarini ijtimoiy-demografik guruhlarini deb atash qabul qilingan. Aholining jins va yoshi bo‘yicha ish bilan bandlik xususiyatlarini hisobga olish maqsadida aholining quyidagi ijtimoiy-demografik guruhlarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir:

⁴ 4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo‘mitasi ma‘lumoti 2020 yil

erkaklar, ayollar, yoshlar (16-29 yoshgacha bo'lgan mehnatda faol aholi) o'rta yoshli kishilar (30-49 yosh), pensiyaga chiqish arafasidagi kishilar (50 yoshdan oshgan mehnatga qobiliyatli aholi), pensiya yoshidagi kishilar va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasida ishsizlik darajasi

Respublikamizda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar hamda korxonalar daromadlari yo'qotishlarini qoplash, faoliyat yuritishini hamda ish o'rinlarini saqlab qolishni rag'batlantirish maqsadida turli imtiyozlar joriy etildi. Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari tadbirkorlik subektlariga molmulk solig'i, yer solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash bo'yicha kechiktirish imkoniyati taqdim etildi. Yuqorida keltirilgan masalalar bilan bir qatorda aholini asosan yoshlarni ish o'rinlari bilan ta'minlash masalasi ham pandemiya sharoitida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mehnat bozori jamiyat, siyosat va iqtisodiyotda ro'y beradigan o'zgarishlarga sezgir hisoblanadi. Dunyo bo'yicha 2020 yil boshlanishidan mehnat bozoridagi ayrim kasblarga bo'lgan talab keskin o'zgarib boshladi. Inqirozli sharoitlarda, xususan, koronavirus infeksiyasining keng tarqalishi xavfi mavjudligi sharoitida aholi daromadlarini va ish o'rinlarini saqlab qolish, aholi ish bilan bandligining egiluvchan shakllaridan, ya'ni, ayrim joylarda qisqartirilgan ish kuni yoki haftasi, ayrim sohalarda masofaviy ish bilan bandlikdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 2 mlrd. dan ortig'i norasmiy iqtisodiyotda ish bilan banddir. Bular, jami ish bilan bandlarning 62 % ni tashkil etadi. Norasmiy ish bilan bandlik past rivojlangan mamlakatlarda 90,0 % ga yaqinni, o'rta rivojlangan mamlakatlarda 67,0 % va rivojlangan mamlakatlarda 18,0 % atrofida tashkil etadi.⁵ Yoshlarni ish bilan bandlikni ta'minlovchilarni rag'batlantirish inqirozli holatlarni ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini bartaraf etish uchun zarurdir. Bunday choralar samarali muloqot asosida inqirozga qarshi choralarni adolatli, samarali bo'lishi va bevosita ishtirokchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Tahlikali vaziyat ish beruvchilar, xodimlar va hukumat o'rtasida samarali muloqotni yo'lga qo'yish hamda ijtimoiy sheriklik jarayoniga norasmiy ish bilan bandlarni ham jalb etish imkonini beradi. Xalqaro mehnat meyorlari barchani qamrab olishga qaratilib, inson huquqlari, imkoniyatlar tengligi, har kimning sog'lig'i holatini e'tiborga olgan holda hech kamsitishsiz adolatli siyosat olib borishga xizmat qiladi. Bu esa asosan inqirozlarga norasmiy iqtisodiyotni inobatga olgan holda samarali qarshi kurashish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda O'zbekiston mehnat bozorida 13,7 mln kishi band bo'lib, ulardan 5,8 mln kishi rasmiy va 7,9 mln kishi norasmiy sektorda, shu jumladan, 2,6 mln kishi mehnat migranti sifatida mehnat qilmoqda. Norasmiy iqtisodiyotdagi ish bilan bandlar hamda korxonalar pandemiya

⁵ Soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi rasmiy veb sahifasi.

sharoitida inqirozga uchrashi mumkin bo'lgan eng zaif qatlam hisoblanadi. Ushbu qatlamni qo'llabquvvatlamaslik mehnat bozori inqirozga yuz tutishi hamda kambag'allik darajasini oshishiga olib kelishi mumkin. Moliyaviy texnologiyalar, kasaba uyushmalari, ish beruvchilar, biznes vakillari hamda mahalliy hokimiyatlar hamjihatlikda ishni tashkil etishi orqali norasmiy ish bilan bandlarni qamrab olishi mumkin. Munosib rag'batlantirish imkoniyatlari, texnik ko'maklashish qisqa va uzoq muddatda norasmiy korxonalarini rasmiylashtirish imkonini beradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o'rta korxonalarda norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish chora-tadbirlari oqibatlarini yumshatish ushbu korxonalarining norasmiy sektorga yana qaytishini oldini olish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. 2020-yil 8-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. 2020-yil 1-iyuldan boshlab O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi band qilish bo'yicha faoliyat turlarining 67 tagacha kengaytirilishi asosida ro'yxatga olish tartibi joriy etilgan edi. O'zini o'zi band qilgan shaxslar 2020-yil uchun ijtimoiy soliqni o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida haqiqatda ishlagan vaqtdan qat'i nazar, bazaviy hisoblash miqdorining kamida 50 foizi hajmida to'laydi. Ushbu summa to'liqligicha byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga yo'naltiriladi. Shundan kelib chiqqan holda YaTTlar uchun o'rnatilgan tartibda pensiya hisoblash uchun daromad hajmi aniqlanadi. Keyingi yillarda davlatimiz rahbarining aynan ishsizlik muammosini hal etishga qaratilgan chora-tadbirlari bu borada qator ijobiy natijalar bermoqda. Ayniqsa, ishsiz yoshlarni ish o'rinlari bilan ta'minlashga yunaltirilgan ishlar haqida alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Xususan, "Har bir yoshga bir gektar" loyihasi yurtboshimiz topshirig'iga asosan hokimliklar, sektor rahbarlari va mutasaddi tashkilotlar hamkorligida amalga oshirilmoqda. Ushbu loyiha doirasida 2020-yilning I-choragi natijalariga ko'ra, respublika bo'ylab jami 25 mingdan ziyod gektar yer maydonlari yoshlarga ajratildi. Jumladan, 1277 ga. sabzavot, 1787 ga. poliz, 10296 ga. dukkakli ekinlar, 7727 ga. boshhoqli don ekinlari va 391 ga. kartoshka ekish uchun, 3 866 ga. Esa bog' yaratish uchun ajratib berildi. Respublikamizda vaqtincha ishsizlik mavjudligi sabablaridan biri – ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblikdir. Ya'ni ish bilan band bo'lmagan aholining katta qismi malakasiz xodimlar va mehnat bozoriga birinchi marta chiqayotgan yoshlarni tashkil etmoqda. Aksincha, iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori malakaga va ish tajribasiga ega bo'lgan kadrlarga talab ortib bormoqda. 2020- yil 11-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentimiz tomonidan imzolangan "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror ham aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyatini

amalga oshirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi Prezidentimiz qaroriga asosan, ushbu loyihalar ijrosini ta‘minlash uchun Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasiga Inqirozga qarshi kurashish jamg‘armasidan 2020-yil uchun ajratiladigan mablag‘larga qo‘shimcha ravishda 150 milliard so‘m mablag‘ ajratiladi. Bu chora-tadbirlar makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga, iqtisodiyot rivojlanishiga, aholining hayot darajasi va sifati izchil o‘shishiga mustahkam zamin yaratmoqda. Ish bilan bandlikda yoshlarning ijtimoiy va iqtisodiy vazifalari ularing mamlakat mehnat potensialini shakllantirishdagi roli bilan belgilanadi. Bu guruhda shartli ravishda ikki katta guruhni -o‘quvchilar va ishlovchi yoshlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Mehnat bozoriga chiqadigan va ish bilan bandlikka ko‘maklashuv Markazlari xizmatiga murojaat qiladigan yoshlarning umumiy soni kadrlarning bo‘shash ko‘lami bilan belgilanadi.

XULOSA

Bizning fikrimizcha mehnat bozorida yoshlar ishsizligini kamaytirishni ta‘minlovchi omillardan biri, ularning bilim darajasi va kasbiy malakasini oshirish hamda mehnatni diversifikasiyalash bilan bog‘liq noqishloq ish o‘rinlarini yaratish, xizmat ko‘rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishning alohida ahamiyatga ega ekanligi hisoblanadi. Yoshlarning ish bilan bandligiga ko‘maklashish sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillarini amalga oshirish, ularning ishsizligini kamaytirishning ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish mehnat bozorida yoshlarga mehnatni diversifikasiyalash asosida talabni rag‘batlantirish hamda chuqur tahlil va tadqiq etish natijasida ularning ish bilan bandligi darajasini oshirish bo‘yicha tegishli ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqarish muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 30.12.2020 y. Xalq so‘zi №276(7778).
2. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri. – T.: “FAN”, 2019. – 592 b.
3. Economic progress Report.- London. : 1981
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo‘mitasi ma’lumoti 2020 yil.
5. Soliq.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi rasmiy veb sahifasi.

“4K” MODELI VA UNING TA’LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Idiyeva Gulchehra Izomovna

Buxoro davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) ixtisosligi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada 4K modelining zamonaviy ta’limdagi ahamiyati yoritilgan bo‘lib, unga ko‘ra, zamonaviy dunyoda eng ko‘p talab qilinadigan to‘rtta qobiliyat: tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va kollobaratsiya (hamkorlik) o‘zida mujassamlashtirgan. Bu ko‘nikmalar universaldir, ya’ni ular har qanday sohada, kasbda yoki mashg‘ulotda qo‘llanilishi mumkin. Shuning uchun, ta’lim jarayonlarini tashkil etishda bu modeldan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: kommunikativlik, kollobaratsiya, kreativ fikrlash, kritik fikrlash, 4K model, innovatsion uslub

Ta’limni isloh qilish darsliklarni yangilash, ularni har tomonlama innovatsion usullar bilan boyitish bugungi ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Buning uchun esa, avvalo, darslardagi o‘quv materiallarini o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga, ularni har tomonlama boyitish, o‘quvchining idrok olamini kengaytirishga yo‘naltirish lozim. Bu samaradorlikni ravnaq toptirish, ta’limni isloh qilish tizimga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog‘liq. Ana shunday uslublardan biri “4K” modelidir. “4K” modeli kollobaratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash kabi 4 ta tushunchalarni qamrab oladi.

1. **Kollaboratsiya** darsliklarda o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarda hamkorlik qilish, samarali fikr almashish, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, jamoa bilan ishlash, uning har bir a‘zosini hurmat qilish, fikrini inobatga olish ko‘nikmalarini shakllanishiga yordam beradi. Aloqa ko‘nikmalarini rivojlantirishning mantiqiy davomi jamoaviy ishdir. Zamonaviy dunyoda bu mahorat ayniqsa talabga ega, chunki deyarli har qanday kasb u yoki bu darajada jamoaviy ishlarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun bola turli odamlar bilan muloqot qilishni, munozarali masalalarga yechim topishni va jamoada uyg‘un muloqot qilish mahoratini o‘rganishi kerak **Shaxsning kollaborativ o‘quv muhitiga kirishi o‘quvchining insoniy munosabatlarga kirisha olish xususiyatini rivojlantirishga, amaliy, ilmiy va nazariy faoliyat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga, muayyan ijtimoiy normalar va funksiyalarni shakllantirishga faol jalb qilishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchi jamiyatda o‘zini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallaydi, jamoa a‘zolari bilan faol munosabatda**

bo'ladi, kelajakda turli xil ijtimoiy vaziyatlarda o'zini qanday tutishni, muloqot qilishni o'rganadi. Hamkorlik muhiti ijodiy salohiyatga ega bo'lib, o'quvchi shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bunday muhitda o'quvchi o'zini jamoa faoliyat sub'ekti, ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida his qiladi, o'z ahamiyatini va shaxsiy qadriyatini tushunadi.

2. Kommunikativlik bu o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga, o'z fikrini bemalol, dadil, o'ziga ishongan holda burro ifodalashga, jamiyatda to'g'ri so'zlash, har qanday vaziyatda muloqot imkoniyatlaridan foydalanib, chiroyli so'zlarni qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda "tarmoq" yoki "foydali aloqalar" faol rivojlanmoqda, chunki murakkab kasbiy, shaxsiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun odam ma'lum bir sohada o'z aloqalariga ega bo'lgan tanish odamlarning yordamiga murojaat qiladi. Bundan tashqari, ijtimoiy muloqot orqali insonning shaxsiy o'sishi va o'zini o'zi bilishi sodir bo'ladi, u o'zi va dunyo haqida yangi bilim va g'oyalarga ega bo'ladi va shaxsan boyitiladi.

Dars jarayonida shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, kasbiy-pedagogik muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida o'qituvchining kommunikativ madaniyati muhim o'rin egallaydi. Bola o'qituvchining dildan gapirayotganligini his qilib turishi kerak. Bo'lmasa ko'ngildagidek muloqot amalga oshmaydi. Ayrim pedagoglar bolalar bilan ularning yoshini hisobga olmasdan muloqotda bo'ladilar. O'qituvchi bola katta bo'layotganligini sezib tursa, bu uning muloqot madaniyatini shakllanayotganligidan dalolat beradi.

3. Kreativ fikrlash-o'z maqsadiga erishish yo'lida yangiliklarga qo'l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko'nikmalarini o'rgatish, kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) –shaxsning yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Kreativlik "yaratish", "yaratuvchanlik" so'zlarini ifodalab qolmasdan inson hatti-harakatidagi o'ziga xos iqtidorni namoyon etuvchi salohiyat ko'rinish hisoblanadi.

Kreativlik – narsalarga boshqalardan farqli qarash, yangi o'ziga xos yechim va g'oyalarni ishlab chiqish, keng, global, ijodiy fikrlash qobiliyatidir. Ijodkorlik insonning intellektual va ijodiy qobiliyatlari chorrahasida tug'iladi va uni rivojlantirish mumkin. Yangi sharoitda ijodiy fikrlash eng muhim "moslashuvchan" mahoratga aylanadi, chunki ijodiy odamlar tubdan yangi qimmatbaho mahsulotlarni yaratishga va zamonaviy dunyoda juda zarur bo'lgan samarali echimlarni topishga qodir.

4. Kritik fikrlash ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z

ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Bolaning hayot faoliyatida asosiy fikrlash va nutq qobiliyatlarini birlashtirgan holda, ma'lum bir nuqtai nazarni asoslash uchun turli xil variantlardan foydalangan holda muhokama qilish ko'nikmalari hisoblanadi. Mavjud ma'lumotlarni asoslash, sintez qilish va tahlil qilish, axborot ma'lumotlarini bir-biri bilan bog'lash, savollarni aniq shakllantirish va berish va ularga aniq javob olish qobiliyati, shuningdek, sifatli qarorlar qabul qilish qobiliyati sanaladi.

Zamonaviy ta'lim yod olishga yo'naltirilgan kontent o'rniga o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi, tanqidiy, kreativ va ijodiy fikrlash, jamoada ishlash kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yimoqda. Har bir darslikda shu kabi topshiriqlar kiritilgan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Берикханова А.Е. (-2017) Создание коллаборативной учебной среды как средство формирования успешности личности будущего учителя. Вестник КазНПУ. Алматы
2. Образование: одним больше, другим меньше? Региональное исследование в области образования в Центральной и Восточной Европе и СНГ. – М: "ЮНИСЕФ", 2007 48
3. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. СПб, 2006. -285с
4. De Witt, P (2005). Creative Ability- a model for psychiatric occupational therapy. In Crouch, R. & Alers, V.(eds). Occupational Therapy in Psychiatry and Mental Health. 4 th Edition. London and Philadelphia: Whurr Publishers.

“MUSTAQILLIK DAVRI SHE'RIYATI”

Sodiqova Dildora Boxodirovna

Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi

30-umumta'lim maktabining ona tili va

adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy detallarning Mustaqillik davri she'riyatidagi talqini tahlil etilgan. Istiqlol davriga qadam qo'yish bilan xalqimizning milliy ongi shakllana bordi, milliy g'urur, iftixor, milliy mafkura kabi tushunchalarning mazmuniga kengroq ahamiyat qaratildi.

Kalit so'zlar: mustaqillik, obraz, detal, ramz, metafra, she'riyat, muhit, kolorit, xususiyat, iishora.

Mustaqillik yillari qator shoir va yozuvchilarimizning, muayyan ma'nodagi, ijodiy sarhisob davri bo'ldi. Bu davrda Abdulla Oripov va Erkin Vohidovning ko'pjildlik asarlari nashr etiladi. Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Usmon Azim, Mirpo'lat Mirzayev, Azim Suyunning „, Saylanma “ lari bosilib chiqdi. Mustaqillikdan avval yozilganlari bilan bir qatorda istiqlol davrida yozilgan asarlar ham o'rin olgan ko'p jidlik va saylanmalarga nazar tashlar ekansiz, keyingi davrdagi ijod namunalarda avvalgi bosqichdagi asarlarga xos bo'lmagan Vatan, Istiqlol, Erk mavzu va muammolarning yangicha tasvirlariga, yangicha uslubiy talqinlarga va bu yo'nalishdagi yangi-yangi badiiy obrazlar, timsollariga duch kelamiz. Sirojiddin Sayyid vatanga bo'lgan muhabbatini quyidagicha ifodalaydi:

Ochsang davronlarning kitoblarini,

Qancha karvonlarning ertagi bordir.

Tingla donolarning xitoblarini:

Egasi bor yurtning-ertasi bordir.

Sirojiddin Sayyid she'rlarining asosiy mavzusi vatan, erk mavzulari hisoblanadi va uning shu mavzudagi she'rlarida biroz didaktikaga berilish mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Sirojiddin Sayyid uchun she'r – ruhiy sog'inch, Shoirlik esa qismat. Shoir o'z burchini ana shu tushunchalar uyg'unligida ko'radi, “misralar bilan dardlashar ekan o'z borlig'ini”, ijodkor sifatidagi “bisotini” shunday izohlaydi:

Ishqdan bo'lak titrog'im yo'qdir,

Yo'qdir she'rdan bo'lak hech larzam.

Do'stlarimdan boshqa hech kimim

Yordan-ko'kdan boshqa hech narsam.

Mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng erk g'oyalari adabiyot va san'atda ham o'z aksini topa boshladi. Xuddi shunday orzular qanotida o'zbek adabiyotida xalqning o'tmishi, buguni va ertasini kuylagan shoir lardan biri Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid sanaladi. shoir ning ko'plab she'rlari xalq poetik ijodidagi shakllarga yaqin turadi. Bu esa shoirning xalq poetik ijodini tinimsiz o'rganib, ulardan oziqlanganligini va ijodiy foydalanganligidan dalolat beradi. U o'z ijodida goh xalq qo'shiqlaridan, laparlardan foydalansa, goh xalq maqollariyu iboralarini mahorat bilan she'rga singdirib yuboradi. Mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng erk g'oyalari adabiyot va san'atda ham o'z aksini topa boshladi. Xuddi shunday orzular qanotida o'zbek adabiyotida xalqning o'tmishi, buguni va ertasini kuylagan shoirlardan biri Muhammad Yusuf sanaladi.

Shoirning ko'plab she'rlari xalq poetik ijodidagi shakllarga yaqin turadi. Bu esa shoirning xalq poetik ijodini tinimsiz o'rganib, ulardan oziqlanganligini va ijodiy foydalanganligidan dalolat beradi. U o'z ijodida goh xalq qo'shiqlaridan, laparlardan foydalansa, goh xalq maqollariyu iboralarini mahorat bilan she'rga singdirib yuboradi. "Kechagina qishloqdagi qizlarning bari", "Ko'nglimdagi yor", "Onaizor", "Samarqand", "Kelinchak", "Eslash", "Sevgi sadosi", "Madhiya", "Iftixor", "Vatanim", "Chimildiq", "Xalqona", "Ajab", "Qiyosi yo'q aslo" kabi asarlari xalqchilik bilan sug'orilgan she'rlar qatoridan o'rin olgan. She'r – shoirning o'zligi, uning mohiyati. shunga ko'ra, Muhammad Yusuf ijodida xalqona tafakkur tarzining ustunligi shoirning fikrlash va turmush tarzi, dunyoqarashi, boringki, butun borlig'i xalqqa judayam yaqin ekanligidan, ruhiyatidagi to'liqlinlaru hissiyot mavjlarini boshqacha ifodalay olmasligidan dalolatdir. Shu sabab shoir har bir tasvirlanayotgan voqea-hodisaga, masalaga xalq manfaatlari va orzu-umidlari nuqtai nazaridan yondashadi, umuminsoniy dunyoqarashni va g'oyaviylikni namoyish etadi.

Muhammad Yusuf "Xalq bo'l, elim" she'ri orqali xalq ongiga birdamlik, hamjihatlik, hamfikrlik kabi g'oyalarni singdirishga intiladi. Bu harakat she'rning bosh pafosiga aylangan. Ushbu she'r xalqni birdamlikka chorlashi bilan ajralib turadi. Shoir Muhammad Yusuf esa elni xalq bo'lishga chorlab tarixning ayovsiz g'ildiragi ostida toptalib kelgan, sobiq Ittifoq davrida o'zining kimligini ham unutayozgan elini, xalq bo'lib yashashiga umid ko'zi ila qaraydi. Xalq bo'lib birlashgan va yashagan davrlarini esa bir-bir eslatadi.

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,
Qumlar bosib qurimasin daryolarim.
Alpomishga alla aytgan momolarim
Ruhini shod etay desang – xalq bo'l, elim"

Yangi bosqich o'zbek she'riyatining ko'lami yanada kengaydi. Gap, bu yerda mavzu va muammolar kengligidagina emas. Ana shu mavzu va muammolarning ifoda

tarzi, badiiy tahlil etish san'ati, uslublar rang-barangligi, xalq yo'lidagi baxshiyona, xalq dostonlari, termalari yo'lidan tortib, masnavi-yu g'azal, G'arb adabiyotining sonnet va modern yo'nalishidagi she'rlardan tortib, olis yapon she'riyatidagi tanka, xokku shakllaridagi asarlargacha paydo bo'ldi. To'g'ri, bu shakllarning aksariyati She'riyatimizda ilgari bosqichda ham mavjud edi. Biroq bu shakl va yo'nalishlarda endi yangi davr muommolari, istiqlol davri kishisining ichki dunyosi va intilishlarini tasvirlashga bo'ysundirilgan yangi obrazlar, yangi tasvir vositalari, yangi g'oyalar o'z ifodasini topa boshladi.

Ayni fikrni bugungi o'zbek she'riyatining «modern» yo'nalishida ijod qilayotgan barcha shoirlar asarlariga tadbiiq etish mumkin, deb o'ylaymiz. Hozirgi adabiyotshunoslikda shoirlarni ularning voqelikni anglash va tasvirlash tamoyillariga ko'ra shartli ravishda an'anaviy va zamonaviy (modernistik) yo'nalishga mansub, deb qarash kuchayib bormoqda. Agar Baxrom Ruzimuxammad modern yunalishidagi shoir sifatida e'tirof kilinayotgan bolsa, Sirojiddin Sayyid an'anaviy uslubdagi ijodkor sifatida e'tirof etilmoqda. Muhimi shundaki, ijodkor mahorati uning qaysi yo'nalishga mansubligi bilan emas, balki asarlarining g'oyaviy-badiiy yuksakligi va xalqchil pafosi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, har ikkala yo'nalish vakillari ham metaforizmdan foydalanishadiki, bu hol badiiy ijod tabiati bilan bog'liq holatdir.

Lekin asosiy farq shundaki, zamonaviylikka moyil shoirlar poetik ma'noni chuqur hissiyot va ruhiy olamning tahlili asosida kupincha "men" orqali ifodalasalar, an'anaviy yo'nalishdagi shoirlar ijodida asosan poetik fikrga urg'u beriladi va majoziy unsurlar uni bo'rttirish va ta'sirchanligini oshirishga qaratiladi. Bu xususiyat Sirojiddin Sayyid she'riyatiga ham xosdir. Shu ma'noda uni falsafiy fikrlar shoiri deyishadi. To'g'ri, Sirojiddin Sayyidning hamma she'rlarida fikr va kechinma uyg'unligi bir xil emas. Bu tabiiy hol. Chunki shoir o'z maqsadiga ko'ra ko'pchilik she'rlarida falsafiy-ma'naviy qarashlar ustuvor bo'lgani sababli ularda kechinma intellektual fikr ifodasiga ko'maklashuvchi vosita vazifasini bajaradi. Falsafiy fikrni poetiklashtirishda majoziy obrazlilikka ko'proq murojaat etadi.

Chunki bunday uslubdagi she'rlar kitobxondan she'rshunoslik ilmini va muayyan adabiy tayyorgarlikni talab etishi aniq. Zotan, she'rni har bir kitobxon o'z ko'ngli, his-tuyg'ulari va tafakkur tarziga monand his qilib anglaydi. Lirik bevosita insonning tuyg'ulariga, uning ma'naviy olamiga murojaat qiladi. Shuning uchun ham poeziya kishilarning ongi va qalbiga juda katta kuch bilan ta'sir qilish imkoniga ega. Lirik asarlarni o'qigan o'quvchilar inson xarakterini, uning ruhiyatidagi sirli harakatlarni farqlashni, o'z hatti-harakatlarini yuksak ma'naviy mezonlar nuqtai nazaridan baholashni o'rganadi. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari poeziya bilan muloqot qilish hamda uning ta'sirida bo'lishga katta ehtiyoj sezishadi. Zero, ayni shu yoshda shaxslik, uning ma'naviy va estetik tasavvurlari faol tarzda shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. –Тошкент: Шарқ, 2004;
- 2.Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000;
- 3.Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: Ўзбекистон, 2008;
4. Назаров Б. Гафур Гулом олами. –Тошкент: Фан, 2004;
5. Расулов А. Таҳлил, талқин, баҳо. –Т.: Фан, 2006;
- 6.Қуронон Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Тошкент: Шарқ НМК, 2004;
- 7.Ёқубов И. Бадиий-эстетик сўз сеҳри. – Т.: Фан ва технология, 2011;
- 8.Жўрақулов У. Худудсиз жилва. –Т.: Янги аср авлоди, 2006

MUSTAQILLIK DAVRI DRAMATURGIYASI

Sodiqova Nigora Baxodirovna

Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi

30-umumta'lim maktabining ona tili va

adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik davri dramaturgiyasi, dramaturgiyaning rivojlanishi va yangilanishi, Istiqlol dramaturgiyasida shakliy izlanishlar, estetik qarashlari tizimida sodir bo'lgan yangilanishlarning bugungi dramaturgiya taraqqiyotiga jiddiy ta'siri haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: mustaqillik davri, dramaturgiya, estetik qarashlar, shakliy izlanishlar.

Dramaturgiyaning takomillanishi va yangilanishi mavzu ko'lamining kengayishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu borada ayniqsa tarixiy mavzudagi sahna asarlarning ko'payganligini alohida takidlash kerak. Tarixga munosabatning o'zgarganligi, buyuk ajdodlarimizning badiiy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy merosini qadrlash, tarixiy manbalarni o'rganish sababli xalqimiz o'zligini tushunish jarayonini boshidan kechirdi. Ayniqsa Amir Temur, Ahmad al-Farg'oniy, Mashrab singari murakkab tarixiy shaxslar to'g'risida rang-barang janrlarda turli shakllardagi sahna asarlari dunyoga keldi.

O'zbek milliy tafakkuri, estetik qarashlari tizimida sodir bo'lgan yangilanishlar hozirgi dramaturgiya taraqqiyotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. O. Yoqubovning "Bir koshona sirlari", Usmon Azimning "Bir qadam yo'l", Erkin Samandarning "Arabmuhammad Bahodirxon", Ilhom Hasanning "Bir kam dunyo", Abdulla A'zamning "Dugohi Husayniy", "Jek London hikoyasidan so'ng" kabi asarlari hozirgi o'zbek dramaturgiyasida erishilgan yutuqlardan bo'ldi.

O'z mustaqilligini qo'lga kiritgan davlatning poydevori esa, bu albatta, shu jamiyat bag'rida o'sib kelayotgan yosh avlod hisoblanadi. Ularni milliy mafkura ruhida tarbiyalash, avvalo ona vatanga, o'z tarixiga hurmat va muhabbat tuyg'ularini shakllantirish, yurtimizda olib borilayotgan ta'lim borasidagi islohotlarning asoslaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek: "Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham – shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham shu xalq... Xalq rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi. Xalq bizdan rozi bo'lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi. Shunday ekan, biz ham ana shu xalqimizning milliyligi, urf-odatlarini, bag'rikengligi va mehmondo'stligini butun dunyoga tanitishimiz, milliyligimiz va umuminsoniy qadriyatlarimiz tarannum etilgan asarlarni

o'rganishimiz va o'rgatishimiz lozimdir" Adabiyot darslarida o'quvchilarning o'z ma'naviy kamolotlarini ta'minlashda bevosita ishtirok etishlari, ijodiy fikrlashi, mustaqil tarzda bilim egallash ko'nikmalarini shakllantirish va uni rivojlantirishlari, mavjud bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llay bilishlarida dramatik asarlar muhim ahamiyat kasb etadi.

"So'z san'atining asosiy turlaridan biri bo'lgan drama qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib harakat, amal-faoliyat degan ma'nolarni anglatadi. Dramatik asarlar, asosan, sahnada ijro etishga mo'ljallangan bo'lib, suhbat-dialog shaklida yoziladi. Dramatik turga drama, komediya, tragediya (fojea) singari janrlar mansubdir. Bunday bitiklarda voqelik asarda bevosita ishtirok etuvchi shaxslarning xatti-harakatlari va nutqi orqali ochiladi. Dramatik asarlar sahnaga moslab yoziladi"

"O'zbek dramaturgiyasi tarixida mustaqillik davri alohida bosqich sanaladi. Bu davr o'zbek dramalarida o'zbekona turmushning eng muhim qirralariga, milliy qadriyatlar va urf-odatlar talqiniga alohida diqqat qaratiladi. Boshqa adabiy tur va janrlar bilan dramatik asarlar taqqoslanganida uning poetik xususiyati va tarkibiy tuzulishini yaxshi anglab olish mumkin.

Dramatik asar voqelikning o'ziga xos badiiy talqini bo'lgani uchun obrazlar tabiati ham dialogik va monologik nutq, xatti-harakat, imo-ishora, sukut, yig'i yoki kulgi kabi sahnaga xos tasviriy-psixologik vositalar yordamida ochiladi. Tabiiyki, bu omillar sahna asarining umrboqiyiligini belgilaydi". Mustaqillik davri dramaturgiyasi mustaqil yurt o'quvchilarining ma'naviy yuksak, axloqi pok, ruhiy olami mustahkam bo'lishiga munosib hissa qo'shadi

Istiqlol dramaturgiyasida shakliy izlanishlar, ijodiy tajribalar bir zum ham to'xtagan emas. Dramaturglar sanog'iga yetib bo'lmas hayotiy ko'rinishlar shu holatlarda harakat qiladigan qahramonlar tabiatida ham jiddiy evrilishlar yasashi mumkinligini nozik his qilgan tarzda drama-versiya, drama-vaziyat kabi yangi ifoda shakllarini o'ylab topganlarki, bu hoi asarlarning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlagan.

She'riyat va nasr haqida mustaqillikkacha bo'lgan yaqin o'tmishdagi estetik yuksakliklarga yetibgina qolmay, undan balandroq cho'qqilarni egallash imkoniyati paydo bo'lganligi ayon haqiqat bo'lsa, dramaturgiya bobida shu kungacha erishilgan sahnaviy yuksaklikka yetib borilmayotganligi achinarlidir.

Binobarin, milliy adabiyotimiz uchun haq gapni aytish badiiy ijodning oddiy talabiga aylanib qoldi. Bugun adabiyot zarur gapni, dolzarb masalani insonning taqdiriga bog'lab, ta'sirli yo'sinda ifodalash lozimligiga odatlanib bormoqda. Milliy dramaturgiyada esa hozirgacha kerak gapni yalang'och yo'sinda, keskin tarzda aytish fazilat sanab kelinmoqda. Dramatik tur o'zbek adabiyotiga kirib kelganiga bir asr bo'ldi.

Ilk dramatik asar sifatida tan olingan Behbudiyning " Padarkush" asari 1911 yilda yozilgandi. Yuz yillik tarix va tajribaga ega bo'lgan bu o'zbek dramaturgiyasi o'tgan

asrning boshi va ikkinchi jahon urishi vaqtini hisobga olmaganda doimo ham boshqa adabiy turlardan sustroq takomillashgan. Bu susayish ayniqsa o'tgan asrning "turg'unlik davri" deb atalgan 70 80 va mustaqillikning ilk yillarida aniq seziladi. Bunday sustkashlikning muayyan obyektiv va subyektiv sabablari ham bor.

